

**PISA XALQARO BAHOLASH TIZIMI VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI
MUAMMOLAR TAHLILI**

Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturining mazmun-mohiyati hamda uning O'zbekiston ta'lim tizimini baholashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida PISA baholash mezonlari — o'qish savodxonligi, matematik va tabiiy fanlar bo'yicha funksional savodxonlik — asosida O'zbekiston ta'lim tizimida mavjud muammolar aniqlanadi. Jumladan, ta'lim mazmunining amaliyotdan uzilganligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, o'qitish metodlarining zamonaviy talablarga to'liq mos kelmasligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, PISA tadqiqotlari natijalari asosida O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha xulosalar va takliflar ilgari suriladi. Maqola natijalari ta'lim siyosatini ishlab chiqishda va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** PISA testi, OECD o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi, Ona tili va o'qish savodxonligi, Tabiiy fanlar*

**THE PISA INTERNATIONAL ASSESSMENT SYSTEM AND THE ANALYSIS OF
PROBLEMS IN UZBEKISTAN'S EDUCATION SYSTEM**

***Annotation.** This article analyzes the essence and significance of the PISA (Programme for International Student Assessment) international assessment system and its role in evaluating the education system of Uzbekistan. The study identifies existing problems in Uzbekistan's education system based on PISA assessment domains—functional literacy in reading, mathematics, and science. In particular, issues such as the detachment of educational content from real-life practice, insufficient development of critical and logical thinking skills, and teaching methods that do not fully meet modern requirements are examined. Furthermore, conclusions and recommendations for improving the education system of Uzbekistan are proposed based on the results of PISA studies. The findings of the article have scientific and practical significance for the development of education policy and the implementation of reforms aimed at improving the quality of education.*

***Keywords.** PISA assessment, OECD, reading literacy, mathematical literacy, scientific literacy, mother tongue and reading literacy, science education.*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ СИСТЕМА ОЦЕНКИ PISA И АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ СИСТЕМЫ
ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА**

***Аннотация.** В данной статье анализируются сущность и значение международной системы оценки PISA (Programme for International Student Assessment), а также её роль в оценке системы образования Узбекистана. В ходе исследования на основе критериев оценки PISA — функциональной грамотности в области чтения, математики и естественных наук —*

выявляются существующие проблемы в системе образования Узбекистана. В частности, рассматриваются такие вопросы, как оторванность содержания образования от практики, недостаточное формирование навыков критического и логического мышления, а также несоответствие методов обучения современным требованиям. Кроме того, на основе результатов исследований PISA выдвигаются выводы и предложения по совершенствованию системы образования Узбекистана. Результаты статьи имеют научно-практическое значение для разработки образовательной политики и реализации реформ, направленных на повышение качества образования.

Ключевые слова. тест PISA, OECD, читательская грамотность, математическая грамотность, естественнонаучная грамотность, родной язык и читательская грамотность, естественные науки.


Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining sifati va samaradorligini xalqaro mezonlar asosida baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlarning hajmidan ko'ra, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalari ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu sababli ta'lim tizimlarini baholashda an'anaviy imtihon shakllaridan tashqari, xalqaro qiyosiy tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Shunday xalqaro tadqiqotlardan biri — PISA dasturi bo'lib, u Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladi. PISA tadqiqoti 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarini emas, balki ushbu bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish darajasini baholashga qaratilgan. Ushbu yondashuv ta'lim tizimining real samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekistonning PISA tadqiqotlarida ishtiroki milliy ta'lim tizimini xalqaro mezonlar asosida baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ta'lim islohotlarini ilmiy asosda amalga oshirish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri – bu o'quvchilarning egallagan bilimlari, ularning kundalik hayotda amaliy qo'llanish darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyatidir. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash dasturlari, xususan, OECD PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari bugungi kunda jahon hamjamiyatida katta e'tibor markazida turibdi. PISA tadqiqotlari orqali 15 yoshli o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi baholanadi. Bunda nafaqat o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlari, balki ularning nazariy olgan bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal qilishdagi qo'llanilishi ham tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv ta'lim tizimini faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan boyitishga undaydi. O'zbekiston ham PISA baholashida ishtirok etayotgan mamlakatlar qatoriga kirib, o'z o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi va global standartlarga moslashuvchanligini baholash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur tadqiqotlar natijalari o'quvchilarning bilim sifati, mantiqiy tafakkuri, savod xonlik darajasi hamda ta'limdagi ayrim muammolarni aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada PISA tadqiqotlarining mohiyati, O'zbekiston o'quvchilari natijalari hamda o'quv yutuqlarini baholash tizimini takomil lashtirish bo'yicha takliflar keng yoritiladi. Shuningdek, xalqaro ilg'or tajriba tahlil qilinadi va ularni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. PISA (Programme for International Student Assessment) – bu Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan 2000-yildan beri har uch yilda bir marta o'tkazilib

kelinayotgan xalqaro ta'lim baholash dasturidir. Uning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilarning asosiy fanlardagi bilim va ko'nikmalarini real hayotdagi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini aniqlashdir¹. 2000-yilda 32 davlatdan 265 000 o'quvchilar test sinovidan o'tgan. Ushbu yilda asosiy mavzu - o'qish va o'qilgan narsalarni tushunish qobiliyati tanlangan bo'lib, test savollarining uchdan ikki qismi aynan shu mavzuga bag'ishlangan.

Bolalarning PISA bo'yicha olib botilgan tadqiqotlaridan ma'lumki, imtihonlarning turli yo'nalishlari bo'yicha dunyo davlatlarida Singapur, Gongkong, Kanada, Finlandiya, yuqori o'rinlarni egallangan (1 – jadval).



1 – jadval. PISA testidan to'plangan eng yuqori natija olgan davlatlar beshligi

PISA dasturi uchta asosiy yo'nalishda baholash olib boradi:

1. O'qish savodxonligi – matnni tushunish, tahlil qilish, asosiy g'oyalarni ajrata olish va o'z fikrini asoslab ifoda eta olish qobiliyati.
2. Matematik savodxonlik – matematik tushunchalarni real hayotdagi muammolarda qo'llash, yechim topish va mantiqiy fikrlash qobiliyati.
3. Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik – ilmiy bilimlar asosida atrof-muhit hodisalarini tushuntirish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish malakasi².

Bu baholash mezonlari an'anaviy test tizimlaridan farq qiladi. PISA o'quvchilarning yodlangan bilimlarini emas, balki bilimdan amalda foydalana olish darajasini o'lchaydi. Shu sababli, savollar ko'pincha hayotiy holatlarga asoslangan, tahliliy va muammoli shaklda bo'ladi.

PISA testlari o'zbek o'quvchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu baholash orqali:

- a) ta'lim tizimidagi bo'shliqlar aniqlanadi;
- b) fanlarni o'qitish metodikasi tahlil qilinadi;

¹ PISA 2015 Worldwide Ranking – average score of math, science and reading// <https://factsmaps.com/pisa-worldwide-ranking-average-score-of-math-science-reading/>

² Axunjanova.Sh. PISA tadqiqotlari asosida o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini baholash tizimini takomillashtirish yo'llari // <https://journal.avloniy.uz/uploads/article/7>

c) o'quvchilarda mustaqil fikrlash, savodxonlik darajasi o'lchanadi. Mazkur dastur nafaqat ta'lim tizimining joriy holatini baholaydi, balki uni isloh qilish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712 sonli Farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamalakatlar qatoriga kirishga erishish hamda ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan³.


Shu munosabatlar bilan 2022-yilda ilk bor 9 – sinf o'quvchilari o'rtasida xalqaro PISA testlari o'tkazilib mamlakatimizdagi 15 yoshli o'quvchilarning matematik, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyalarini sinab ko'rildi. Bunday xalqaro baholash mezonlari bizning ta'lim tizimimizda tizimli muommolarning qalashib ketganligini ko'rsatdi. Oddiy bir sonlarga e'tibor qaratsak:

OCED davlatlari ichida birgina matematik savodxonlik bo'yicha o'rgan ko'rsatkichlari 2 ball olgan o'quvchilar foizi 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 81 % ni tashkil etgan. Eng yuqori 5 baholi olgan o'quvchilar OCED davlatlarida 9 % bo'lsa bu ko'rsatkich O'zbekistonda nolga tengligi qayd etildi⁴. Bu yoshlarda matematik savodxonlikning va kompetensiyaning eng yomon ahvoldaligidan dalolat. O'qish savodxonligi bo'yicha 2 balldan kam olgan o'quvchilar 86 %ni, tabiiy fanlar bo'yicha esa 83% ni ko'rsatildi (2 – jadval)⁵.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli Farmoni.

⁴ PISA results country notes: Uzbekistan // <https://www.oecd.org/>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.. O'zbekistonning PISA 2022 natijalari bo'yicha hisobot. Toshkent. 2022



2 – jadval. O‘zbekistonda olingan PISA natijalari (% hisobida)

Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimidagi muommalarni ko‘rsatdi. Shundan keyin mamlakatimizda ta’lim bo‘yicha yirik islohotlar dasturi boshlandi. Dastlab qabul qilingan loyihalarni kechiktirmaslik kerakligi PISA orqali ko‘rinib qolgan edi

O‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. “Umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish” kabi vazifalar belgilab berildi. Mamlakatimizda o‘qitish va tarbiyalash milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni: Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini bosqichmabosqich joriy etish o‘quvchining shaxsiga, unda ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil rivojlanishga o‘rgatish, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishni nazarda tutadi. Bugungi ta’lim tizimi eski mazmundagi o‘quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o‘qitish tizimiga o‘tmoqda. Shunga mos ravishda ta’lim berishga yondashuvlar ham o‘zgarib, internet va axborot texnologiyalari sharofati bilan o‘qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, o‘qituvchi tashkilotchiga aylanmoqdalar⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Xalqta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalqta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi

⁶ Pardayeva.M., Ergasheva.M. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: 2022. – B 17

yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doimalarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma beriladi. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashrqilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etayotganligi, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish fursati kelganligi ham ta'kidlab o'tiladi. 2021-yil sentabrdan birinchi va ikkinchi sinflariga qo'llanilishi boshlangan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ushbu talabni bajarish uchun tashlangan qadamdan biri bo'ldi⁷.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, PISA xalqaro baholash tizimi o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning real hayotda bilimlarni qo'llash, muammolarni hal etish va tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan samarali baholash mexanizmi hisoblanadi. Ushbu tizim natijalari orqali ta'lim sifati, o'quv dasturlarining samaradorligi hamda pedagogik yondashuvlarning zamonaviy talablarga mosligi baholanadi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston ta'lim tizimida PISA talablari bilan bog'liq qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, o'quv dasturlarida kompetensiyaviy yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi, dars jarayonida reproduktiv ta'lim usullarining ustunligi, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga kam e'tibor qaratilishi ta'lim sifati pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, o'qituvchilarning PISA formatidagi topshiriqlar bilan ishlash tajribasining yetishmasligi va baholash tizimining an'anaviy shakllarga tayanib qolayotgani ham muhim muammolar qatoriga kiradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning PISA tadqiqotlarida ishtirok etishi ta'lim tizimini takomillashtirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Xalqaro tajribani o'rganish, o'quv dasturlarini kompetensiyaga asoslangan holda qayta ko'rib chiqish, o'qituvchilar malakasini oshirish va baholash tizimini modernizatsiya qilish orqali PISA natijalarini bosqichma-bosqich yaxshilash mumkin. Demak, PISA tadqiqotlari O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim diagnostik vosita bo'lib xizmat qiladi hamda ta'lim sifatini oshirish yo'lida strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PISA 2015 Worldwide Ranking – average score of math, science and reading // <https://factsmaps.com/pisa-worldwide-ranking-average-score-of-math-science-reading/>
2. Axunjanova.Sh. PISA tadqiqotlari asosida o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini baholash tizimini takomillashtirish yo'llari // <https://journal.avloniy.uz/uploads/article/7>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlanishtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli Farmoni.

⁷ Ona tili va o'qish savodxonligi : 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova va boshq. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – B 4

4. PISA results country notes: Uzbekistan // <https://www.oecd.org/>
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.. O'zbekistonning PISA 2022 natijalari bo'yicha hisobot. Toshkent. 2022
6. Pardayeva.M., Ergasheva.M. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o'qituvchi va metodistlari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: 2022. – B 17
7. Ona tili va o'qish savodxonligi : 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova va boshq. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – B 4

